

**Djurayeva G.X. t.f.n.
dotsent**

**“Neft va gaz ishi” kafedrası
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**

Nomozov M.A.

magistratura studenti

**“Neft va gaz ishi” kafedrası
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**

BIFUNKTSIONAL KATALIZATORDA N-PARAFINLAR GIDROKREKINGI

Annotatsiya. Gidrokreking jarayonida sodir bo'ladigan kimyoviy reaktsiyalar: to'yinmagan va aromatik uglevodorodlarni gidrirlanishi natijasida naften va parafin uglevodorodlarni olinishi, parafin uglevodorodlarining izomerlanishi amalga oshiriladi. Bifunksiyali katalizatorda n-parafinlarning gidrokrekingi bir necha bosqichlarda boradi. Gidrokreking reaktsiyalarining mexanizmi karboniy ionidir, ya'ni, izomerizatsiya va gidrogenlanish reaktsiyalarini bilan birqalikda katalitik kreking reaktsiyalarining mexanizmidan iborat. Agar bir nechta reaktsiya yo'llari mavjud bo'lsa, uchlamchi karboniy ionining shakllanishiga va keyinchalik krekinglashga olib keladigan reaktsiyalar afzalroq hisoblanadi. Xom ashyoni gidrokrekinglash natijalari katalizatorning xususiyatlari: uning gidrirlash va kislotali faolligi va ularning nisbati bilan belgilanadi. Yuqori gidrirlovchi va o'rtacha kislotali faollikka ega katalizatorlarda karboniy ionlarining intensiv to'yinganligi sodir bo'ladi, natijada molekulasida ko'p miqdordagi uglerod atomlari bo'lgan alkanlar hosil bo'ladi.

Kalit so'zlar: konversiya, selektivlik, amorf, seolit, katalizator, gidrirlovchi metallar, dealkillanish, karboniy ion, koks.

**Djuraeva G.Kh., candidate ot technical sciences
associate professor**

**Department of “Oil and Gas Engineering”,
Karshi Engineering and Economic Institute**

Nomozov M.A.

master's student

**Department of “Oil and Gas Engineering”,
Karshi Engineering and Economic Institute**

HYDROCRACKING OF PARAFFINS USING BIFUNCTIONAL CATALYSTS

Abstract: The chemical reactions occurring during the hydrocracking process include the hydrogenation of unsaturated and aromatic hydrocarbons, resulting in the formation of naphthenes and paraffins, as well as the isomerization of paraffin hydrocarbons. In the presence of bifunctional catalysts, the hydrocracking of n-paraffins proceeds in several stages. The mechanism of hydrocracking reactions involves the formation of carbonium ions, which, along with hydrogenation and isomerization reactions, form the mechanism of catalytic cracking reactions. When multiple reaction pathways are possible, reactions leading to the formation of tertiary carbonium ions and subsequent cracking are preferred. The results of raw material hydrocracking depend on the characteristics of the catalyst, which are defined by its hydrogenation and acidic activity ratios. Catalysts with high hydrogenation activity and moderate acidic activity lead to the intense saturation of carbonium ions, resulting in the formation of alkanes with a high number of carbon atoms.

Keywords: Conversion, selectivity, amorphous, zeolite, catalyst, hydrogenating metals, dealkylation, carbonium ion, coke.

Gidrokreking neftni qayta ishlashning rivojlangan jarayonlaridan biri bo‘lib, tegishli katalizatorlar va jarayon parametrlarini tanlash orqali neft xomashyosidan yuqori sifatli komponentlar - suyultirilgan gazlar, reaktiv va dizel yoqilg’isi, neft komponentlari kabi keng assortimentli mahsulotlar olish imkonini beradi.


Gidrokreking - bu reaktiv yoqilg’i resurslarini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin bo’lgan yagona fizik va kimyoviy neftni qayta ishlash jarayonidir. Gidrokreking jarayonlari konversiyalash darajasiga qarab engil (YeGK) va chuqr (ChGK) turlarga bo’linadi.

Gidrokreking yuqori selektivlik va moslashuvchanlik bilan tavsiflanadi, jarayon sharoitidagi kichik o’zgarishlar mahsulotlarning tabiatini sezilarli darajada o’zgartiradi. Bir katalizatorda fraksiyalanish shartlari, reaksiya harorati va unumdoorligini o’zgartirish orqali turli maqsadli mahsulotlarning maksimal miqdorini olishga erishiladi.


Gidrokreking jarayonida sodir bo’ladigan kimyoviy reaktsiyalar: oltingugurt, azot va kislorod tarkibli organik birikmalarining gidrogenolizi orqali vodorod sulfidi, ammiak va suv hosil bo’lishi; to’ymagan va aromatik uglevodorodlarni gidrirlanishi natijasida naften va parafin uglevodorodlarni olinishi; yuqori molekulyar birikmalar va naften uglevodorodlarning krekingi; siklik tuzilishga ega birikmalarining dealkillanishi; parafin uglevodorodlarining izomerlanishi kabilardan iborat.

Gidrokreking jarayonida amorf va seolit saqllovchi katalizatorlar keng qo’llaniladi. Tarkibida seolit bo’lgan hidrokreking katalizatorlarida maqsadli mahsulotlarning unumdoorligi amorf larda qaraganda yuqori bo‘lib, ular istiqbolli hisoblanadi. Ular hidrirllovchi metallar sifatida nikel, kobalt va molibdenni o’z ichiga oladi. Parchalanish faolligini oshirish uchun katalizatorlarga amorf alyuminosilikat yoki seolit tarkibli komponent kiritiladi.


Gidrokreking sharoitida alkanlar bifunksional katalizator ishtirokida uch yo‘nalishda o‘zgarishga uchraydi. Parchalanish mahsulotlarini vodorod bilan to‘yingan holda kislotali markazlar ishtirokida krekingi:



Gidrirlovchi faol markazlarda gidrogenoliz:



Kislota markazlarida izomerlanish:






Kreking va izomerlanish ikkala katalizator markazlari ishtirokida (gidrirlash-degidrlanish va izomerlanish), ularning kelib chiqishi esa gidrirlash-degidrirlash markazlarida sodir bo‘ladi.

Gidrokreking reaktsiyalarining mexanizmi karboniy ionidir, ya’ni, izomerizatsiya va gidrogenlanish reaktsiyalari bilan birqalikda katalitik kreking reaktsiyalarining mexanizmidan iborat. Gidrokrekingning dastlabki reaktsiyalari katalitik kreking reaktsiyalariga o‘xshash bo’lsa-da, katalizatorda ortiqcha vodorod va gidrirlash komponentining mayjudligi gidrogenlash mahsulotlarini hosil bo‘lishiga olib keladi va shuningdek, koks va takroriy kreking kabi ba’zi ikkilamchi reaktsiyalarni ham keltirib chiqaradi.

Bifunktsiyali katalizatorda n-parafinlarning hidrokrekingi quyidagi bosqichlarda boradi:

- n*-parafinlarning metall markazlariga adsorbsiyasi;
- n*-olefinlarni hosil bo‘lish degidrogenatsiyasi;
- Kislota markazlarida diffuziya va metall markazlari desorbsiyasi;
- Oraliq karboniy ionlari orqali kislota markazlarida olefinlarning krekingi va yoki skelet izomerizatsiyasi;
- Hosil bo‘lgan olefinlarning kislota markazlaridan desorbsiyasi va metall markazlariga tarqalishi;
- Ushbu olefinlarni (*n*- va izo-) metall markazlarida gidrirlanishi;
- Olingan parafinlarning desorbsiyasi.





Agar bir nechta reaktsiya yo'llari mumkin bo'lsa, uchlamchi karboniy ionining shakllanishiga va keyinchalik krekinglashga olib keladigan reaktsiyalar afzalroq hisoblanadi (reaktsiya (d) va (e)).

Xom ashyni gidrokrekingsh natijalari katalizatorning xususiyatlari: uning gidrirlash va kislotali faolligi va ularning nisbati bilan belgilanadi. Yuqori gidrirlovchi va o'rtacha kislotali faollikka ega katalizatorlarda karboniy ionlarining intensiv to'yinganligi sodir bo'ladi, natijada molekulasida ko'p miqdordagi uglerod atomlari bo'lgan alkanlar hosil bo'ladi, lekin yuqori kislotali katalizatorlarga qaraganda kamroq izomerlanadi. Gidrokrekings katalizatorlari amalda kokslanmaydi, chunki alkenlar tez gidrirlashga uchraydi va polimerlanish va zichlanish mahsulotlari hosil bo'lishi bilan keyingi o'zgarishlarga duchor bo'lishga ulgurmaydi.

Adabiyotlar.

1. Капустин, В.М., Гуреев, А.А. Технология переработки нефти. В 4-х частях. Часть вторая. Физико-химические процессы. – М.: Химия, 2015. - 400 с.

2. Ткачев С.М. Технология переработки нефти и газа. Процессы глубокой переработки нефти и нефтяных фракций. Ч.1 Курс лекций. – Новополоцк: ПГУ, 2006. – 345 с.

3. Рябов В.Д. Химия нефти и газа: учебное пособие. – М.: ИД «ФОРУМ», 2009. – 336 с.
4. Джураева Г.Х., Номозов М.А. Методы переработки нефтяных углеводородов. “Экономика и социум” №5(120)-1 (май, 2024). с.1212-1216.